	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI SAMARAQAND DAVLAT UNIVERSITETI	

Ro'yxatga olindi: № 60230100.1.18 2021- yil "__"_____	**"TASDIQLAYMAN"** SamDU rektori: _____ R.I.Xalmuradov 2021-yil "__"_____

JAHON ADABIYOTI TARIXI
FAN DASTURI

Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar soha
Ta'lim sohasi:	320000- Gumanitar fanlar
Ta'lim yo'nalishi:	60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili

Fan dasturi "Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi" kafedrasining 2021-yil 25-may 10-sonli yig'ilishida muhokamadan o'tdi.

Kafedra mudiri **prof.Sh.A.Hasanov**

Fan dasturi fakultet uslubiy kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (22-may 2021-yil. № 8-son bayonnoma).

Fakultet uslubiy kengashi raisi **dots. Sh.Mahmadiyev**

Fan dasturi fakultet ilmiy kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (26-may 2021-yil. № 8-son bayonnoma).

Fakultet ilmiy kengashi raisi **prof.A.Pardayev**

Fanning dasturi Samarqand davlat universiteti kengashining 2021-yil 24-avgustdagi 1-sonli majlis bayoni bilan ma'qullangan.

O'quv ishlari bo'yicha prorektor: **prof.A.S.Soliyev**

Fan/modul kodi *JAM 2007*	O'quv yili 2022-2023	Semestr 3/4	ECTS – Kreditlar 7	
Fan/modul turi Majburiy	**Ta'lim tili** O'zbek		**Haftadagi dars soatlari** 4	
1.	**Fan nomi**	**Auditoriya mashg'ulotlari (soat)**	**Mustaqil ta'lim (soat)**	**Umumiy (soat)**
	Jahon adabiyoti tarixi	90	120	210

2.

I. Fanning mazmuni

Fanni o'qitishning maqsadi jahon adabiyoti tarixi sohasining predmeti, vazifalarini yoritish, fan doirasida o'rganiladigan asosiy masalalarning mazmun-mundarijasini belgilash, jahon adabiyoti tarixi bosqichlari, manbalari, adabiy jarayon, adabiyot taraqqiyoti, antik adabiyot, O'rta asrlar adabiyoti, Uyg'onish davri adabiyoti, ma'rifatparvarlik, realizm va romantizm adabiyoti, modernizm adabiyoti, adabiy metodlar, jahon adabiyoti namoyondalari haqida ma'lumot berishdan iborat.

"Jahon adabiyoti tarixi" fanining mohiyati, davrlarilari, tushunchalari va terminlarini o'zlashtirish; fanning muammolari haqida nazariy bilimlarni egallash, innovatsiyalarni ta'lim tizimiga jalb etish, zamonaviy axborot-kommunikasiya tizimidan foydalanish shuningdek, fanning bugungi kundagi dolzarb muammolarini belgilashdan iborat.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. Fanning maqsadi, vazifalari.

"Jahon adabiyoti tarixi" fanining predmeti va mazmuni, nomlanishi, ob'yekti, geografik miqyosi, davrlashtirilishi. Fanning maqsad va vazifalari. Jahon adabiyotining antik davri: Shumer, Misr, Hind, Xitoy, Yunon, Rim adabiyoti. Ularning o'zaro mushtarak va farqli jihatlari. Jahon adabiyoti manbalariga tipologik, genetik, tarixiy-madaniy yondashuv.

2-mavzu. Mif va badiiy ijod.

Mif va jahon adabiyoti. Mifologiyaning jahon adabiyoti tadrijidagi o'rni. Mifologiya jahon adabiyotini o'rganishda adabiy-nazariy, falsafiy-estetik asos sifatida. Mifologik maktablar, mif - falsafa, estetika va din. Mif shakllari: tabiat, jamiyat, inson, o'tmish, kelajak, yaratilishi va inqiroz haqidagi miflar. Shumer – Bobil adabiyoti, Misr adabiyoti, Eron adabiyoti, Hind adabiyoti, Xitoy adabiyoti, Markaziy Osiyo adabiyoti. Sharq adabiyotining jahon adabiyotiga ta'siri.

3-mavzu. Antik davr yunon adabiyoti.

Qadimgi antik adabiyot. Yunon adabiyoti. Mifologiya va epos. Homer "Iliada" va "Odessiya" dostonlari. Axill va Odissey obrazlari, "Odissiya" va "Alpomish". Gesiod "Mehnat va kunlar" didaktik asari. Yunon lirikasi. Monodik va tantanali lirika. Elegiya va Yamb. Yunon lirikasida vazn.

4-mavzu. Antik davr Rim adabiyoti.

Rim adabiyoti taraqqiyot bosqichlari va yo'nalishlari. Dastlabki Rim shoirlari. Rim adabiyotida tarixshunoslik. Rim adabiyotining "oltin davri". Vergiliy "Eneida" dostoni. "Bukolikalar" va "Georgikalar". Rim poeziyasi. Gorasiy ijodi. Gorasiy "Epodlar", "Satiralar", "Nomalar". Rim elegiyasi va Ovidiy ijodi, "Metamorfozalar" asari, Imperiya davri Rim adabiyoti, Rim adabiyoti va keyingi davr Yevropa adabiyoti.

5-mavzu. O'rta asrlar Sharq va G'arb adabiyoti.

O'rta asrlar Sharq adabiyoti. Firdavsiy "Shohnoma". "Xamsa"chilik an'anasi. Umar Xayyom ruboiylari. Rudakiy g'azaliyoti. Jaloliddin Rumiy. Sa'diy Sheroziy. Sharq va G'arb qahramonlik eposlari. Fransuz, ispan, nemis qahramonlik eposlari. XII-XIII asrlar risarlik-kurtuaz adabiyoti. Risarlik adabiyotida sharqona javonmardlik va axiylik masalalari. O'rta asrlarda shahar adabiyoti va uning janrlari. Jahon adabiyoti va Alisher Navoiy.

6-mavzu. Uyg'onish davri adabiyoti.

Renesans tushunchasi mohiyati. Uyg'onish adabiyoti alomatlari va o'ziga xosliklari. Sharq Uyg'onishi va uning belgilari. Jahon madaniyatida Uyg'onish davri. Uyg'onish davri Sharq va G'arb adabiyoti, madaniy-adabiy aloqalar. G'arbda Uyg'onish davri. Uyg'onish davri ingliz lirikasi, eposi va dramasi. Adabiy muhit. Dramaturgiya va teatrchilik. Globus teatri. Shekspir hayoti. lirika. Sonetlar. Dramaturgiya. Uyg'onish davri fransuz lirikasi, eposi va drmaturgiyasi. Fransua Rable "Gargantyua va Pantgryuel" asari. M.Baxtin tadqiqotlari. Yevropa Uyg'onish adabiyotining davrlari. Italiya Uyg'onish davri adabiyoti. Dante. Petrarka lirikasi. "Dekameron" va "Ming bir kecha".

7-mavzu. Yangi davr jahon adabiyotining predmeti va muammolari.

Davrlashtirish masalasi. Yangi adabiy oqimlar, adabiy-estetik qarashlar. Adabiy siymolar. Adabiy turlar, janrlar, poetik yangilanishlar. Dunyoqarashlar, adabiy talqinlar xilma-xilligi va adabiy-falsafiy o'ziga xosliklar.

8-mavzu. Klassisizm adabiyoti (XVII asr G'arbiy Yevropa adabiyoti).

Klassisizm adabiyoti taraqqiyot bosqichlari. Klassisizm adabiyotining o'ziga xosligi. Klassisizm adabiyotining nazariy asoslari va janrlari. Fransuz klassisizmi va uning vakillari. Angliya va Ispaniyada klassisizm. Klassisizm adabiyotining jahon adabiy tafakkuri taraqqiyotidagi ahamiyati.

9-mavzu. Ma'rifatchilik adabiyoti (XVIII asr G'arb ma'rifatchiligi).

Ma'rifatchilik adabiyotining klassik ma'rifatchilikdan farqi va o'ziga xosligi. Angliya ma'rifatchiligi. Ingliz ma'rifatchilik adabiyotining yo'nalishlari, vakillari va janrlari. Fransuz ma'rifatchilik harakati. F.Volter, D.Didro, J.J.Russo ijodida ma'rifatparvarlik g'oyalari. Nemis ma'rifatchilik adabiyoti. G.E.Lessing, F.Shiller va I.V.Gyote ijodida ma'rifat masalasi.

10-mavzu. Ma'rifatchilik adabiyoti (XIX asr Sharq ma'rifatchiligi).

G'arb va Sharq ma'rifatchiliginig mushtarak va farqli jihatlari. Sharq musulmon ma'rifatchiligida mustamlakachilik, milliy parokandalik va ma'rifiy mahdudlik masalasi. Sharq va'rifatchilik adabiyotinig namoyondalari.

11-mavzu. Romantizm adabiyoti.

Romantizmning nazariy asoslari va o'ziga xosliklari, nemis adabiyotida romantizmning manbalari. Ingliz romantizmida Bayron va Shellining tutgan o'rni. Bayron ijodida shaxs erki va ozodlik masalasi. Fransuz adabiyoti. V.Gyugo va J.Sand ijodi. Milliy ozodlik mavzui. Amerika romantizm adabiyoti. F.Kuper tarixiy roman asoschisi. Romantizmning tarixiy asoslarda aks etishi. Romantizmning jahon adabiyotidagi o'rni.

12-mavzu. Realizm va tanqidiy realizm adabiyoti.

Realizm estetikasi. Realizm va tanqidiy realizm. Adabiyotda tanqidiy realizmning paydo bo'lishi. Fransuz adabiyotida tanqidiy realizm. F.Stendal "Qizil va qora", "Parma ibodatxonasi" romanlari. Balzak ijodi. "Gorio ota", "Gobsek", "Yevgeniya Grande" asarlari. P.Merime novellalarida real voqyelikka tanqidiy munosabat. G.Flober "Bovari xonim" romanida romantizm adabiyotiga munosabat. Ch.Dikkens va U.Tekkerey ijodi. Nemis tanqidiy realizm adabiyoti. G.Geyne ijodida realizm va tanqidiy realizm uyg'unligi.

13-mavzu. XIX asr oxiri va XX asr jahon adabiyoti.

Geografiyasi, muammolari va o'ziga xosligi. San'at va adabiyotning asosiy vazifasi masalasi. Adabiyotda yangi ijtimoiy muammolalarning paydo bo'lishi. An'anaviy realizm va novatorlik. O.Kont va I.Tenning pozitivizm falsafasi. E.Zolya va aka-uka Gonkurlar naturalizmi. Dekadentlik adabiyoti. Impressionizm. Simvolizm va uning vakillari.

14-mavzu. Modern badiiy tafakkur.

Modernizm tarixi va taraqqiyot bosqichlari. Modernizmning nazariy va falsafiy asoslari. Modernizm va mifologiya. Modernizm yo'nalishlari: ekspressionizm, dadaizm, kubizm, futurizm, abstraksionizm, syurrealizm... Elitar san'at. "San'at san'at uchun". Modernizm va Joys, Kafka va Prust ijodi. J.P.Sartr va ekzistensializm. Kamyu va absurd falsafasi. Modernizm va XX asr Sharq adabiyoti.

15-mavzu. Postmodernizm adabiyoti.

Postmodern adabiyotning mazmun mohiyati, namoyandalari. Universal gumanizm, jami tirik mavjudodga teng qarash. Sharq, Lotin Amerikasi, Afrika, Okeaniya xalqlari madaniyatiga qiziqish, madaniyatlarni teng ko'rish. Xos va avom adabiyoti o'rtasidagi chegaraning olib tashlanishi, ikkiyoqlama kodlashtirish tamoyili, janrlar mutasiyasi, ijodda individ rolini inkor qilish, "muallif o'limi" konsepsiyasi.

16-mavzu. Hozirgi zamon jahon adabiyoti.

Hozirgi zamon Yevropa adabiyoti. Postmodernizm va neorealizm hodisalari. Madaniyatlar sintezi. Shakl va mazmundagi evrilishlar. Hozirgi zamon Sharq adabiyoti. Lu Sin - Xitoy realizm adabiyotining asoschisi. Mo Yan ijodi – ertak va haqiqat qorishgan adabiyot. X asr Yapon novellalari: K.Abe, T.Abe, D.Yosyuki, S.Nakamura, K.Oe, S.Endo, Akutagava ijodi. XX asr Yapon romanchiligi. Yasukari Kavabato ijodi. Jo'rji Zaydon arab romanchiligi asoschisi. Realistik qahramonlar. Arab adabiyoti Abduraxmon al-Homusiy hikoyanavis. Koreys adabiyotining o'ziga xosliklari. Eron zamonaviy nasri va nazmi manzaralari.

17-mavzu. Lotin Amerikasi adabiyoti.

XX asr Lotin Amerikasi adabiyoti. P.Neruda, Gabriyel Markes, Xuan Rulodo ijodida milliy ozodlik mavzusi. Markes «Tanholikning yuz yili», «Oshkora qotillik qissasi» asarlari. P. Koelo romanlarida inson muammosi. U. Folkner asarlari. E.Xeminguey asarlarida inson talqini. Avstraliyada ingliz adabiyoti. Kanada adabiyoti. Okeaniya mamlakatlari adabiyoti. Malayziya adabiyoti. Islom ta'siridagi adabiyot. O'zbek va jahon adabiyoti. Mumtoz o'zbek adabiyoti: namoyandalari, asarlari. Zamonaviy o'zbek adabiyotining asosiy xususiyatlari: nasr, nazm va dramaturgiya manzaralari.

III. Amaliy (yoki seminar yoki laboratoriya) mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Amaliy-semenar uchun 1-qismga quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Mifologiya va badiiy adabiyot.
2. Homerning qahramonlar xarakterini yaratish mahorati.
3. Sharq va G'arbda masalchilik, didaktika.
4. Antik davr Yunon lirikasining poetic xususiyatlari.
5. Yunon dramalarida umuminsoniy qadriyatlar.
6. Aristofon va komediya janri.
7. Qadimgi Yunon va Rim prozasi.
8. Qadimgi Rim shoirlari.
9. Jahon adabiyotida qahramonlik eposlari.
10. "Don Kixot" – asarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.
11. "Ilohiy komediya"da ijtimoiy-axloqiy qarashlar.
12. F.Rablening "Gargantyua va Pantagryuel" asari tahlili.
13. "Dekameron" va "Ming bir kecha" asarlari qiyosiy tahlili
14. Sheksper dramalari, poema va sonetlari tahlili.

Amaliy-semenar uchun 2-qismga quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. G'arb va Sharq ma'rifatchiligi: mushtaraklik va o'ziga xoslik.
2. D.Defoning "Robinzon Kruzo" romanida ma'rifat g'oyasi.
3. I.B.Gyote asarlarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.
4. F.Shiller "Qaroqchilar" tragediyasida erksevarlik g'oyalari.
5. Gyote "Faust" asarining asosiy g'oyasi.
6. Stendal "Qizil va qora" romanida ijobiy qahramon muammosi.
7. Balzak asarlarida umuminsoniy qadriyatlar.
8. L.Tolstoy ijodiyoti, romanlari poetikasi.
9. Pushkin "Yevgeniy Onegin" she'riy romani realistik asar sifatida.
10. F.Dostoyevksiy "Jinoyat va Jazo" romanida psixologizm.
11. G.Markes asarlarida realistic va mifologik elementlar.
12. J.Joys "Uliss", A.Kamyu "Begona", F.Kafka "Jarayon" asarlari.
13. Sharq falsafasi va P.Koelo romanlarida mushtarak motivlar.
14. Modernizm adabiyoti va modernist ijodkorlar.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Birinchi qismga mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

	Mustaqil ta'limga oid bo'lim va mavzulari	Mustaqil ta'limga oid topshiriq va tavsiyalar	Hajmi (40 soat)
	1	**2**	**3**
1.	"Bilgamish" va "Ramayana" eposlarida mifologik motivlar	Asarlarni qiyosiy o'qish	4
2.	"Go'ro'g'li" va "Mahabharata" asarlarida obrazlar	Qiyosiy tadqiq asosida yoshma ish tayyorlash	4
3.	Gomerning "Iliada" va "Odisseya" asarlarida mifologik syujetlar	(Qadim dunyo mifologiyasi. - M., 1987).	4
4.	"Shoh Edip"da tragizm muammosi.	Shu kitob asosida yozma ish tayyorlash.	4
5.	"Shohnoma"da Zahhok obrazi: mifologik, diniy, badiiy talqin.	"Shohnoma" va mifologiyaga.	4
6.	Kelt xalqlari sagarlarida sharqona syujetlar.	Etik va estetik qatlamlar muqoyasasi.	4
7.	Dante ijodiga sharq badiiy-falsafiy tafakkurining ta'siri.	"Ilohiy komediya" asari	4
8.	F.Rable va folklor munosabati	M.Baxtin qarashlari	4
9.	Shekspirning "Qirol Lir" asarida masxara obrazi.	"Hazillashmang daho bilan" ("O'zAS", 2002, iyun) maqolasi asosida.	4
10.	Kristofer Marloning «Buyuk Temur" asari.	"Buyuk Temur" asari tahlili misolida.	4

Ikkinchi qismga mustaqil ta'lim mavzulari

	Mustaqil ta'limga oid bo'lim va mavzulari	**Mustaqil ta'limga oid topshiriq va tavsiyalar**	**Hajmi (80 soat)**
	1	**2**	**3**

1.	D.Defoning "Robinzon Kruzo" romani badiiyati.	Asarni tahlil qilish	5
2.	"Gulliverning sayohatlari" romanida giperbolaning o'rni.	Kitob asosida yozma ish tayyorlash.	5
3.	F.Shillerning "Qaroqchilar" asarida tragik obrazlar.	Kitob voqyealari asosida insho yozish.	5
4.	Gyote "Faust" asarida umuminsoniy g'oyalar.	E.Vohidov tarjimasida o'qish va tushunish.	5
5.	Bayron ijodida ramntik oboazlar.	She'rlarini yod olish, tahlil qilish.	5
6.	Pushkin "Yevgeniy Onegin" she'riy romanida muhabbat motivlari.	Romanni tahliliy o'qish.	5
7.	Stendalning "Qizil va qora" romanida J.Sorel obrazi.	"Gorio ota" asari asosida.	5
8.	Lev Tolstoyning "Urush va tinchlik" romanida badiiy psixologizm.	Asar badiiy tahlili.	5
9.	F.Dostoyevksiyning "Jinoyat va Jazo" romanida inson tabiati talqini.	Asar ustida ishlash, mustaqil ish tayyorlash.	10
10.	E.Xeminguey ijodida inson muammosi talqini.	"Chol va dengiz" asari tahlili.	10
11.	J.Joys "Uliss", F.Kafkan "Jarayon" asarlarida ekzistensializm talqini.	J.P.Sartrning "Ekzistensializm to'g'risida" maqolasi	10
12.	A.Kamyu va S.Bekketlar ijodida absurd g'oyasi.	"Begona" va "Godoni kutish" asarlari tahlili	10

3. **V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

-Jahon adabiyoti tarixi fani bo'yicha bilimlarni shakllantirish, jahon adabiyoti

	tarixini adabiy davrlar, poetik tamoyillar, adabiy siymolar, ma'anaviy-badiiy jihatdan yetuk asarlarni tahlil qilishga doir bilimlarni egallash va ularni amaliyotda tatbiq etish, bu jarayonni bevosita nazariy-poetik, adabiy-ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy sohalardagi amaliy ahamiyati *haqida tasavurga ega bo'lishi*; -Jahon adabiyotining jamiyat tarixi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, insonni ezgulik va ma`naviy barkamollikka undovchi g'oyalar hamda inson pok tuyg'u va kechinmalarni o'rganishi, jahon adabiyoti namunalarini adabiy-estetik hamda ilmiy-nazariy nuqtai nazardan tahlil va talqin qilish malakasini hosil qilishni *bilishi va ulardan foydalani olishi*; -Jahon adabiyotida shakllangan adabiy oqim va yo'nalishlarni chuqur o'rganish asosida milliy badiiy-estetik tuyg'ularni taraqqiy ettirishi, jahon xalqlari madaniy-ma'naviy hayotidagi adabiy muhit, badiiy-estetika taraqqiyotining davr va bosqichlarni *bilishi va ulardan foydalani olishi*; - Jahon adabiyotidagi milliy va umuminsoniy an'analarni o'rganishi, adabiy-estetik didini yuksaltirishi, jahon adabiyoti namunalarining individual, milliy va umuminsoniy jihatlarini ilmiy tahlil qilish, jahon xalqlari adabiyotining millat, jamiyat ravnaqidagi o'rni va ahamiyatini tushunishi, jahon adabiyoti namunalarining mazmun mohiyatini anglashi, ularni filologik tahlil va tadqiq etish malaka va *ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.*
4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • tarqatma materiallar; • ko'rgazmali qurollar; • Kompyuter; • Internet yangiliklari; • muammoli ta'lim; • qiyosiy tahlil.
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish
6.	**Asosiy adabiyotlar:** 1. Алимухаммедов А. Чет эл адабиёти (Антик адабиёт тарихи). Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2007 йил 2. Бойназаров Ф. Жаҳон адабиёти. – Т.: "Мусиқа", 2006 йил 3. Норматова Ш. Жаҳон адабиёти. – Т.: "Маънавият", 2008 йил 4. Ҳамдамов У., Қосимов А. Жаҳон адабиёти тарихи. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Университет, 2017 йил 5. Азизов Қ., Қаюмов О. Чет эл адабиёти тарихи. (XVIII-XX асрлар). – Т.:

	"Ўқитувчи", 1987 йил **Qo'shimcha adabiyotlar:** 1. Қаюмов О. Чет эл адабиёти тарихи. (V-XVIII). – Т.: "Ўқитувчи", 1979. 2. Qosimov A., Xo'jayev S. Jahon adabiyoti. - Farg'ona:. 2016. 3. Boltaboyev H., Mahmudov M. Adabiy-estetik tafakkur tarixi. - T., Mumtoz so'z. 2013. 4. Дўстмуҳамедов Қ. Нобель мукофотини олган адиблар. – Т.: «Маънавият», 2002. 5. Жаҳон адабиёти тарихи. ЎУМ, ЎзМУ 2011. Ўзбек филологияси факультети кутубхонаси. 6. Қуронов Д., Раҳмонов Б. Ғарб адабий-танқидий тафаккури тарихи очерклари. – Т.: "Фан", 2008. 7. Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. – Т., «Ўзбекистон», 1997. 8. Komilov N. Tafakkur karvonari. - T., 1999. 9. Мелитинский Ю. М. Поэтика мифа. – М., 1976. 10. Мифология древного мира. – М., 1977. 11. Zoyir Ziyotov. Shumerlar va Turon qavmlari. – T., Mumtoz so'z. 2012. 12. Saidov U. Sharq va G'arb: madaniyatlar tutashgan manzillar. – T.: "Yangi asr avlodi", 2009. **Axborot manbalari (saytlar):** 1. www. literature.uz 2. www. genhis philol.ru. 3. http://en.wikipedia.org/wiki/Structuralism
7.	Fan dasturi Samarqand davlat universiteti кengashining 2021-yil 24-avgustdagi 1-son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	**Fan/modul uchun mas'ullar**: U.U.Qobilov – SamDU, Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari doktori A.H.Toshpo'latov – Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi kafedrasi kata o'qituvchisi, (PhD)
9.	**Taqrizchilar:** A.N.Nosirov - SamDU, Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori (ichki) X.Z.Xayrullayev – SamDCHTI professori, filologiya fanlari doktori (tashqi)